



## CULTURAL ENLIGHTENMENT IS THE TENDENCY TO RAISE THE CULTURAL LEVEL OF AN INDIVIDUAL

**Lola Sokhibova**

Associate Professor, PhD

Renaissance University of Education

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: [lolasoxibova63@gmail.com](mailto:lolasoxibova63@gmail.com)

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** culture, enlightenment, personality, tendency, social, information, concept, values, social image, morality, pseudo-literature and pseudoart.

**Received:** 31.03.25

**Accepted:** 02.04.25

**Published:** 04.04.25

**Abstract:** The article conceptually studies the trends that can negatively affect the progressive characteristics inherent in the cultural level and the characteristics inherent in the process of ensuring the spiritual security and social development of society.

## MADANIY MA'RIFAT – SHAXS MADANIY SAVIYASINI YUKSALTIRISH TENDENSIYASI

**Lola Soxibova**

dotsent, PhD

Renessans ta'lim universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: [lolasoxibova63@gmail.com](mailto:lolasoxibova63@gmail.com)

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** madaniyat, ma'rifat, shaxs, tendensiya, ijtimoiy, axborot, konsepsiya, qadriyatlar, ijtimoiy qiyofa, axloq, psevdoadabiyot va psevdosan'at.

**Annotatsiya:** Maqolada madaniy saviyasiga xos bo'lgan progressiv xususiyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan tendensiylar va mazkur masalani jamiyatning ma'naviy xavfsizligini va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlash jarayoniga xos bo'lgan xususiyatlar konseptual o'rganilgan.

## КУЛЬТУРНОЕ ПРОСВЕЩЕНИЕ — ЭТО ТЕНДЕНЦИЯ К ПОВЫШЕНИЮ КУЛЬТУРНОГО УРОВНЯ ЛИЧНОСТИ

**Лола Сохибова**

Доцент, PhD

Университет образования «Ренессанс»

Ташкент, Узбекистан

E-mail: [lolasokhibova63@gmail.com](mailto:lolasokhibova63@gmail.com)

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** культура, просвещение, личность, тенденция, социальный, информация, концепция, ценности, социальный образ, мораль, псевдолитература и псевдоискусство.

**Аннотация:** В статье концептуально исследуются тенденции, которые могут негативно влиять на прогрессивные характеристики, присущие культурному уровню, и характеристики, присущие процессу обеспечения духовной безопасности и социального развития общества.

#### **Kirish:**

Mamlakatimizda shaxs madaniy saviyasiga xos bo‘lgan progressiv xususiyatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan tendensiyalarning paydo bo‘layotganini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Yangi voqelik sharoitida bunday e’tiborsizlik shaxs bilimlari doirasining torayishiga, axloqiy qiyofasi inqiroziga, uning insonparvar g‘oyalardan ajralib qolishiga, milliy va umuminsoniy qadriyatlardan yiroqlashishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu boisdan mazkur masalani jamiyatning ma’naviy xavfsizligini va ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlash bilan bog‘liq strategik ahamiyatga ega bo‘lgan vazifa sifatida baholamoq darkor. Bu vazifani bajarish esa mamlakatimizdagi madaniy ma’rifatni mazmunan takomillashtirish va modernizatsiya qilish, maqsad va vazifalariga aniqlik kiritish, ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, unga yaxlitlik va tizimlilik, uzviylik va uzlusizlik ato etishdan boshlanadi.

Keng ma’noda fikrlaganda, ma’rifat deganda turli bilimlarni tarqatish va targ‘ib qilish jarayoni nazarda tutiladi. Biroq bunday ta’rifga biroz tuzatish kiritish zarur, deb hisoblaymiz. Gap shundaki, har qanday bilimlarni tarqatish ma’rifat bo‘lishi mumkin emas. Chunki insoniyat tarixi davomida pozitiv ahamiyatga ega bo‘lgan bilimlar jamlanib borgani kabi g‘ayriinsoniy xarakterdagi bilim va ma’lumotlar ham to‘plangan. Keyingilarini targ‘ib qilish ma’rifat bo‘lmagan va bo‘lishi ham mumkin emas. Shuning uchun, ma’rifat deganda “tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi bilimlar, ma’lumotlar, ta’lim-tarbiya va maorif tizimi majmuini ifodalovchi tushuncha” nazarda tutilmog‘i darkor. Ko‘rinib turibdiki bu tushunchani madaniy-ma’rifiy tadbirlar yig‘indisini ifodalashda ham, mamlakatdagi mazkur faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarni nomlashda ham qo‘llashadi, ularning biri “ma’rifat” tushunchasining ilmiy-nazariy emas, ikkinchisi esa - amaliy talqinidir.

Ma'rifatning asosiy maqsadi – insonni ma'naviy kamolotga, jamiyatni esa taraqqiyotga eltuvchi g'oya va bilimlar, madaniyat yutuqlarini tarqatish bilan bog'liq bo'lib hisoblanadi. Uning vazifalari va tarkibi davr talablariga mutanosib holda turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, asr boshlarida mamlakatimizda ma'rifatning asosiy vazifasi xalq savodxonligini oshirishdan iborat bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda gumanistik xarakterdagi g'oya hamda bilimlarni tarqatish kun tartibida turibdi. Madaniy-ma'rifiy muassasalar tarkibi xususida ham shunday deyish mumkin: bu maskanlar zamon tendensiyalariga mos ravishda mazmunan va tarkiban to'lishib boradi, ularning ijtimoiy funksiyalari tabiatli ham o'zgaradi.

### **Materiallar va usullar:**

Ma'rifat bir yo'nalishda amalga oshiriladigan jarayon emas. G'oya va bilimlarning sohalari, yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar turkumi turfaligi tufayli u ham turli yo'nalishlarda olib boriladi. Bu o'rinda ilmiy manbalarda "siyosiy ma'rifat", "huquqiy ma'rifat", "axloqiy ma'rifat", "diniy ma'rifat", "pedagogik ma'rifat", "ekologik ma'rifat", "jinsiy ma'rifat" kabi tushunchalarni uchratish mumkin. Madaniy ma'rifat ma'rifatning ana shunday o'ziga xos yo'nalishlaridan biridir.

Shaxs madaniy saviyasini rivojlantirish, uning bilimlari doirasini oshirish, turli g'oyalardan voqifligi meyorini yuksaltirish, qadriyatları tizimini takomillashtirish niyatida amalga oshirilgan ma'rifiy faoliyat *madaniy ma'rifat* deyiladi. U jamiyatning fundamental ehtiyoj va manfaatlari bilan uyg'un holda kechadi. Uning sifati va xarakteri kishilarning madaniyat, shaxsning madaniy rivojlanganligi darajasi haqidagi tasavvurlariga bog'liq. Fundamental ehtiyojlar va tasavvurlar o'zgarsa, jamiyatdagi madaniy ma'rifat shakli ham o'zgaradi. Masalan, o'tgan asrning boshlarida aholi savodxonligini oshirish masalasi ijtimoiy zaruriyatga aylandi. Shu bois madaniy ma'rifatning asosiy vazifalaridan biri savodsizlikni tugatish bilan bog'liq bo'ldi. Bugungi kunda ekstremistik g'oyalar targ'iboti shaxs madaniy saviyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan eng jiddiy omillardan biri bo'lmoqda. Buning natijasida madaniy ma'rifatning asosiy vazifalaridan biri mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan bog'lanmoqda.

Madaniy ma'rifat jamiyatda muayyan tarkibiy tuzilmaning mavjud bo'lishini taqazo qiladi. U turli ta'lim maskanları, madaniyat uyları, jamoat tashkilotları, ijodiy uyushmalar, klublar, axborot-resurs markazları va shu kabilardan tarkib topadi. Muzey, kinoteatr, teatr va boshqa madaniyat maskanları faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri ham madaniy ma'rifat bilan bog'liq. Tarixiy taraqqiyot mobaynida madaniy ma'rifat vazifalarining o'zgarishi mutanosib ravishda mazkur tuzilmaning ham yangilanishiga, uning tarkibiy elementlari xarakteri va faoliyatining o'zgacha tus olishiga sabab bo'ladi.

### **Natijalar:**

O'zbekistonda shaxs madaniy saviyasining asrlar davomida hukm surgan xususiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan qator ijtimoiy jarayon va illatlarning paydo bo'layotgani madaniy-

ma'rifiy ishlarni zamonaviylashtirish, tizimlashtirish, optimallashtirish vazifasini kun tartibiga qo'ymoqda. Bu ijtimoiy ahamiyatga molik vazifani uddalash uchun "*O'zbekistonda madaniy ma'rifat konsepsiyasini*" shakllantirish zarur, deb hisoblaymiz.

Mazkur konsepsiyaning asosiy *maqsadi* jamiyatdagi barcha intellektual potensialni madaniy-ma'rifiy ishlarni optimallashtirish va zamonaviylashtirishga yo'naltirish bilan bog'liq bo'lmosg'i darkor. Ilmiy bilimlarning qardsizlanayotgani, axloqqa zid normalarning paydo bo'layotgani, g'oyaviy nigelizm elementlarining vujudga kelgani, vayronkor g'oyalar targ'ibotining kuchaygani, psevdoqadriyat va aksilqadriyatlarning ko'payib borayotgani, milliy an'ana va marosimlarning deformatsiyaga uchrayotgani, psevdoadabiyot va psevdosan'at rivojlanayotgani konsepsiya doirasida quyidagi *vazifalarni* hal qilishni taqazo qilmoqda:

Birinchidan, jamiyatda *ilm-fan ustuvorligini ta'minlamasdan* turib madaniy-ma'rifiy ishlarni optimallashtirib, zamonaviylashtirib bo'lmaydi. Yangi asrda shaxs madaniy saviyasining pasayishiga olib keluvchi turli ijtimoiy illatlarning ko'payayotgani ilm-fan nufuzini oshirish masalasini kun tartibiga qo'ymoqda. Chunki inson dunyoqarashiga dunyoviy tus berishda, tahliliy tafakkurni shakllantirishda, g'oya va qadriyatlarga insonparvarlik yondashuvini qaror toptirishda uning ahamiyati beqiyosdir. Ilm-fan nufuzi baland bo'lgan jamiyatda shaxsning madaniy jihatdan rivojlanishi maqbul mazmun va shakl oladi, uning ma'naviy qiyofasi turli illatlardan ihotalanadi, ilmiy dunyoqarashning shakllanishiga zamin paydo bo'ladi.

Afsuski, mamlakatimizda uzoq yillar davomida ilm-fan ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan choralar zamon talablaridan ortda qolib keldi. Buni davlat byudjetidan ilm-fan rivoji uchun ajratilgan mablag'lar misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, "mamlakatimizda 300 dan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, tajribakonstrukturlik tashkilotlari, ilmiy-ishlab chiqarish korxonalari, kichik innovatsion markazlar va boshqa ilmiy-texnikaviy tuzilmalar faoliyat ko'rsatayotgan" bir sharoitda "ilm-fanni rivojlantirish uchun joriy yilning (2015 yilning – L.C.) birinchi choragida 19,9 mlrd. so'm moliyalashtirilgan. Jumladan, davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirishga 8,5 mlrd. so'm, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga 1,5 mlrd. so'm, noyob obyektlar va fanga xizmat ko'rsatuvchi muassasalarni saqlash xarajatlariga 7,7 mlrd. so'm, shuningdek qolgan 2,2 mlrd. so'm ilm-fanni rivojlantirish bilan bog'liq boshqa xarajatlarga yo'naltirilgan". Ilm-fan uchun davlat byudjetidan ajratmalar foizi hatto 2020 yilga qadar yalpi ichki mahsulotning 0,2 foizidan oshmagan. Vaholanki, rivojlangan mamlakatlarda, masalan, Germaniyada, bunday maqsadlarga yalpi ichki mahsulotning 3,02 foizi yo'naltiriladi. Ilm-fanni rivojlanti-rish uchun ajratmalarning kamligi,bir tomondan, ilmning jamiyatdagi nufuzini pasaytirib yubordi, ikkinchi tomondan, ilm kishisining obro'-e'tiboriga putur yetkazdi, uchinchi tomondan esa, ilmga intiluvchan yoshlar sonini kamaytirdi.

### **Munozara bo‘limi:**

Keyingi yillarda bu boradagi vaziyatning keskin o‘zgara boshlaganining guvohi bo‘lib turibmiz. Ilm-fanni rivojlantirish davlat siyocatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Davlat rahbari ilm-fan ustuvorligini ta’minalash, “yetakchi olimlar, iste’dodli yosh ilmiy xodimlarning faoliyati va ilmiy tadqiqotlarini qo’llab-quvvatlash, jaiyatda ilm-fan namoyondalarining obro‘-e’tibori va nufuzini oshirish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishini” bot-bot ta’kidlamoqda. Taklif etilayotgan konsepsiya ham jamiyatda ilm va fan ustuvorligini ta’minalashga xizmat qiladigan choralar o‘z ifodasini topmog‘i lozim.

Ikkinchidan, jamiyatda *axloq ustuvorligini ta’minalamasdan* turib madaniy-ma’rifiy ishlarni optimallashtirib, zamonaviylashtirib bo‘lmaydi. Chunki “axloq – kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro munosabat, shuningdek, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarni tartibga solib turadigan barqaror, muayyan meyor va qoidalar yig‘indisidir”.

Sirasini aytganda, O‘zbekistonda axloq asoslari barcha zamonlarda ham mustahkam bo‘lgan. Kishilarning ijtimoiy nufuzi, shaxslararo munosabatlar axloq normalari asosida baholangan, muvofiqlashtirilgan. Biroq yangi asrga kelib, biz ta’kidlab o‘tganimizdek, axloqqa zid bo‘lgan normalar ko‘paya boshladi. Buning oqibatida kishilarni axloqiy normalarga rioya qilishga undovchi madaniy-ma’rifiy tadbirlarga salbiy munosabatda bo‘lgan kishilar paydo bo‘la boshladi. Bugungi kunda bunday munosabat madaniy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirishga, axloqiy tarbiyani zamon talablariga moslashtirishga xalal bermoqda. Aslida esa jamiyatda axloq ustuvorligini ta’minalash har bir shaxsning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. Биринчи жилд. - Т.: Ўзб.файл.миллий жам. нашр., 2019.- Б.774.
2. Шорохова И.В. Политическое просвещение творческой интелигенции Карелии в период хрущевской оттепели.// Ученые записки Петрозаводского государственного университета, 2016, №5.- 30-34-с.
3. Атагимов Э.И., Макаренко Г. И. Правовое просвещение: проблемы и пути решения.// Мониторинг правоприменения, 2015, №1.- 64-68-с.
4. Барабанов В.В., Григоренко А.Ю. Задачи духовно-нравственного просвещения и воспитания в современной школе..// Universum: Вестник Герценовского университета, 2009, №10.- 18-20-с.
5. Хусанов З. Диний маърифат – тинчлик ва тараққиёт гарови.// [http://marifatziyo.uz/articles/diniy\\_marifat](http://marifatziyo.uz/articles/diniy_marifat).

6. Гайдарова Л.И. Педагогическое просвещение родителей как фактор модернизации воспитательной работы в школе: Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. канд. пед. н.- Махачкала: Дагестанский ГПУ, 2012; Курбонова Г.А. Замонавий ўқитувчининг педагогик маҳорати ва педагогик бурчи:// Замонавий таълим, 2017, №12.- 59-64-с.
7. Авазов Ш., Сайдаматов Ф., Аллаберганов Х. “Экологик маърифат” ва “экологик таълим” тушунчалари таҳлили:// ГулДУ ахборотномаси, 2019, №2.
8. Сохибова, Л. Ж. (2021). Культурный уровень личности в узбекистане: диалектика стабильности и изменений. *Ответственный редактор*, 45.
9. Сохибова, Л. (2023). Шахс маданий савияси–маданий ривожланганлик ифодаси. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/ Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/ Actual Problems of Humanities and Social Sciences.,3(S/2), 220-224.